

## MDH MAMLAKATLARIDA TOVAR BELGILARINI MUHOFAZA QILISHDA INNOVATSION TEKNOLOGIYALARINI JORIY ETISHNING ISTIQBOLLARI

Shukurov Eldor Narzulla o‘g‘li

Toshkent davlat yuridik universiteti Magistratura bosqichi  
talabasieldorjonshukurov@gmail.com

**Annotatsiya:** MDH mamlakatlarida tovar belgilarni himoya qilish sohasida raqamlashtirish, globallashuv va soxta mahsulotlarning ko‘payishi sharoitida yangi usullar va texnologiyalar jadal rivojlanmoqda. MDHda tovar belgilarini himoya qilishning innovatsion usullari qatoriga blokcheyn, sun’iy intellekt, raqamli yorliqlar qo‘yish, bojxona ro‘yxatga olishlari va xalqaro tizim bilan integratsiyalashuvlarni misol qilib keltirsak bo‘ladi. Yangi innovatsion usullarni qo’llash va amalga oshirish bo‘yicha Rossiya hozirda yetakchilik qilmoqda, shuningdek, Qozog‘iston va Belarus kabi boshqa davlatlar ham keyingi o‘rinlarda innovatsion usullardan foydalanishda o‘z faoliyklarini namoyish qilib kelmoqda. Bundan tashqari, Yagona Yevroсиyo Iqtisodiy Ittifoqi tizimini rivojlantirish va jarayonlarni raqamlashtirish davlatlarga tovar belgisi sohasida keyingi taraqqiyotni va’da qilmoqda desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Texnologiya taraqqiyoti davrida xalqaro iqtisodiy munosabatlar ham ancha rivojlanib kelmoqda. Internet va raqamli platformalar orqali tovar va xizmatlarning jahon bozoriga chiqishi yanada osonlashib, raqobat muhiti kuchaygan bir paytda tovar belgilarini xalqaro darajada himoya qilish har bir davlat uchun allaqachon muhim masalaga aylangan. Shunday o‘zgarishlar fonida O‘zbekiston ham intellektual mulkni himoya qilishda raqamli tizimlarni joriy etish orqali xalqaro standartlarga moslashishga qaratilgan loyihalarni faol rivojlantirmoqda.

**Kalit so‘zlar:** Blokcheyn texnologiyasi, sun’iy intellekt, BrandMonitor, CompuMark, QR-kodlar, “Честный знак”, IMOBR, Madrid tizimi, “Susayish”, Kontrafakt.

## LEGAL ANALYSIS OF THE PRACTICE OF PROTECTING TRADEMARKS THROUGH THE APPLICATION OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN CIS COUNTRIES

Shukurov Eldor Narzulla o‘g‘li

Tashkent State Law University Master’s Degree  
Studenteldorjonshukurov@gmail.com

**Annotation:** In the context of digitization, globalization, and the proliferation of counterfeit products, new methods and technologies for protecting trademarks are rapidly developing in the CIS countries. Innovative approaches to trademark protection in the CIS include blockchain, artificial intelligence, digital labeling, customs registration, and

*integration with international systems. Russia is currently leading in the application and implementation of these innovative methods, while countries such as Kazakhstan and Belarus are also demonstrating active engagement in adopting these approaches. Furthermore, the development of the Eurasian Economic Union system and the digitization of processes promise further progress in the field of trademark protection, without exaggeration.*

*In the era of technological advancement, international economic relations are also significantly evolving. The ease of accessing global markets for goods and services through the internet and digital platforms, coupled with an increasingly competitive environment, has made the international protection of trademarks a critical issue for every country. Against this backdrop of transformation, Uzbekistan is also undertaking a series of reforms to facilitate the processes of international trademark protection and registration.*

**Keywords:** *Blockchain technology, artificial intelligence, BrandMonitor, CompuMark, QR codes, “Честный знак” (Honest Sign), IMOBR (International Medical and Biological Registry), Madrid system, “Susayish”, Counterfeit.*

Blokcheyn texnologiyasi intellektual mulk (IM) boshqaruvi, xususan, tovar belgilari sohasida sezilarli darajada kengaymoqda. U tovar belgilari huquqlarini himoya qilish va boshqarish uchun mustahkam va shaffof yechim taklif etadi. Aslida, blokcheyn – bu taqsimlangan va markazlashmagan reyestrdir. Tovar belgilariga nisbatan qo'llanilganda, bu tovar belgisiga oid har bir ma'lumot – uning dastlabki ro'yxatga olinishidan tortib keyingi litsenziyalash shartnomalari va hatto egalik huquqining o'tkazilishigacha – zanjirdagi “blok” sifatida qayd etiladi. Har bir blok avvalgisiga kriptografik tarzda bog'langan bo'lib, o'zgarmas va shaffof yozuvni yaratadi. Bu ma'lumotlarni o'zgartirishni yoki qalbakilashtirishni juda qiyinlashtiradi.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) mamlakatlari intellektual mulk uchun blokcheyn salohiyatini faol o'rganmoqda. Masalan, Rossiya va Qozog'istonda tovar belgilari va patentlarni ro'yxatga olishga blokcheynni integratsiyalash bo'yicha loyihalar amalga oshirilmoqda. Ushbu tashabbuslar intellektual mulkni boshqarishning yanada samarali va ishonchli tizimlarini yaratish uchun texnologiyaning xavfsizlik va shaffoflik xususiyatlaridan foydalanishni maqsad qilgan. E'tibor ko'pincha mahsulot haqiqiyligini tasdiqlovchi raqamli sertifikatlarni berish uchun blokcheyndam foydalanishga qaratilgan.<sup>42</sup>

Bugungi kunda sun'iy intellekt va avtomatlashtirilgan qidiruv tizimlari tovar belgilari sohasida tezkor va samarali yechimlarni taklif etmoqda. Bu texnologiyalar tovar belgilarini boshqarish, monitoring qilish va ularga nisbatan qonunbuzarliklarni aniqlashda muhim rol o'ynaydi. Sun'iy intellekt platformalari asosan tovar belgilarini tahlil qilish va monitoring qilish uchun ishlataladi. Ular patent idoralarining ma'lumotlar bazalarida va onlayn bozorlarida mavjud bo'lgan qonunbuzarliklar va

<sup>42</sup> Роспатент и Корпорация МСП запустили новый сервис для регистрации товарных знаков – <https://rospatent.gov.ru/ru/news/28-02-2025-rospatent-i-korporaciya-msp-zapustili-novyj-servis-dlya-registracii-tovarnyh-znakov>

o'xshash belgilarni aniqlashga yordam beradi. Sun'iy intellekt algoritmik tahlillar orqali minglab ma'lumotlarni qisqa vaqt ichida ko'rib chiqishi va potensial ziddiyatlarni aniqlashi mumkin. Biroq, sun'iy intellekt tizimlarining samaradorligi ma'lumotlar sifati va infratuzilma darajasiga bog'liq bo'lib, noto'g'ri tahlil qilish xavfi hali ham mavjud.

Rossiyaning patent idorasi Rospatent tovar belgilari arizalarini ekspertizadan o'tkazishni tezlashtirish va ziddiyatlarni aniqlash uchun sun'iy intellekt vositalarini joriy qilmoqda. Bu jarayon avtomatlashtirilgan tizimlar yordamida sezilarli darajada tezlashadi. Qozog'iston va Belarus davlatlarida ham shunga o'xshash tizimlar sinovdan o'tkazilmoqda. Bu mamlakatlar ham tovar belgilari ro'yxatga olish jarayonlarini optimallashtirish va xatolarni kamaytirish maqsadida sun'iy intellekt vositalariga investitsiya kiritmoqda.<sup>43</sup>

Hozirda BrandMonitor yoki CompuMark kabi avtomatlashtirilgan xizmatlar MDHda ham faoliyat yuritishga moslashtirilmoqda. Bu xizmatlar kontrafakt mahsulotlarni va brendlarning noqonuniy ishlatalishini aniqlashga yordam beradi. Ular katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilish orqali tovar belgilari egalariga o'z huquqlarini himoya qilishda ko'mak beradi. Ushbu tizimlarning bir qancha afzallikkari mavjud, xususan, ma'lumotlarni qayta ishslash tezligi inson qila oladiganidan ancha tezroq katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qila oladi, avtomatlashtirilgan tizimlar xatolarni kamaytiradi va subyektivlikni bartaraf etadi, haqiqiy vaqt rejimidagi tizimlar brendlardan foydalanishni real vaqt rejimida kuzatishi mumkin va bu esa huquq buzilishlarini tezda aniqlash va ularga javob berish imkonini beradi.

Bugungi kunda raqamli suv belgilari (Цифровые водяные знаки) va QR-kodlar mahsulotlarning haqiqiyligini tasdiqlash va intellektual mulk huquqlarini himoya qilishning muhim vositasiga aylandi. Bu texnologiyalar iste'molchilarga mahsulotning kelib chiqishi va uning egasi haqida ma'lumot olish imkonini beradi. Mahsulotlar raqamli suv belgilari yoki QR-kodlar bilan belgilanadi. Bu kodlar o'zida huquq egasi va mahsulotning haqiqiyligi haqidagi ma'lumotlarni saqlaydi. Iste'molchilar o'z smartfonlari yordamida ushbu kodlarni skanerlab, mahsulotning asl yoki kontrafakt ekanligini osongina tekshirishlari mumkin. Bu jarayon shaffoflikni oshiradi va xarid qilishda ishonchni mustahkamlaydi.

Ammo, kichik va o'rta korxonalar uchun raqamli markirovka tizimlarini joriy etish moliyaviy xarajatlarni talab qiladi, shuningdek, iste'molchilarning ushbu texnologiyalarni faol ishlatish odati hali shakllanmoqda.

MDH mamlakatlari raqamli markirovka tizimlarini faol joriy etmoqda. Xususan, Rossiya "Честный знак" (Halol belgi) kabi mahsulotlarni markirovka qilish tizimi jadal rivojlanmoqda. Bu tizim ro'yxatdan o'tgan tovar belgilariga ega mahsulotlarga nisbatan qo'llaniladi va ularning qonuniyligini nazorat qilishga yordam beradi.<sup>44</sup>

<sup>43</sup> Товарный знак создан системой искусственного интеллекта – <https://etalonline.by/novosti/mnenie/tovarnyy-znak-sozdan-sistemoy-iskusstvennogo-intellekta/>

<sup>44</sup> Система маркировки товара Честный ЗНАК: что это и как в ней работать – [https://xn--80ajghhoc2ajc8b.xn--p1ai/info/smi\\_o\\_nas/sistema-markirovki-tovara-chestnyy-znak-chto-eto-i-kak-v-ney-rabotat/](https://xn--80ajghhoc2ajc8b.xn--p1ai/info/smi_o_nas/sistema-markirovki-tovara-chestnyy-znak-chto-eto-i-kak-v-ney-rabotat/)

Bugungi kunda QR-kodlar keng tarqalib, turli sohalarda faol qo'llanilmoqda. Shu sababli, ular axborotni himoyalash texnologiyalarini joriy etishni talab qiladi. Bunday texnologiyalardan biri — raqamli suv belgisini QR-kodga joylashtirishdir. QR-kodni mobil qurilma kamerasi orqali o'qiganda, raqamli suv belgisi joylashtirilgan tasvirda buzilishlar yuz beradi. Ushbu buzilishlar odatda o'zgarishlariga mos bo'lмаган holat sifatida tasniflanadi. QR-kod kontentini himoya qilish uchun raqamli suv belgisini joylashtirish usuli takomillashtirilmoqda. Bu takomillashtirish tasvirdagi noaffin o'zgarishlarga qarshi chidamlilagini oshirish orqali amalga oshiriladi. Ushbu aniqlangan parametr QR-kodning butunligini tekshirish jarayonida raqamli suv belgisi xabarining 100% to'g'ri tiklanishini ta'minlaydi.<sup>45</sup>

Intellektual mulk obyektlarining bojxona reyestri (IMOBR) intellektual mulk huquqlarini himoya qilishda, ayniqsa kontrafakt mahsulotlar savdosiga qarshi kurashishda muhim vositudir. Bu tizim tovar belgilarini ro'yxatga olish orqali bojxona organlariga soxta mahsulotlarning import va eksportini nazorat qilish imkonini beradi. Intellektual mulk obyektlarining bojxona reyestri Yevrosiyo iqtisodiy ittifoqi mamlakatlarda (Rossiya, Qozog'iston, Belarus, Armaniston, Qirg'iziston) keng qo'llaniladi. Bu tizimga tovar belgilari kiritiladi, bu esa bojxona organlariga kontrafakt mahsulotlarning importi va eksportini oldini olishda faol rol o'ynash imkoniyatini beradi. Agar bojxona nazorati jarayonida ro'yxatga olingan tovar belgisining buzilishi aniqlansa, tegishli choralar ko'rildi.

Rossiya IMOBR tizimidan kontrafakt mahsulotlarni bloklash uchun faol foydalanadi. Bu milliy bozorning qalbaki mahsulotlardan himoya qilinishiga yordam beradi. Shuningdek, boshqa MDH davlatlari ham o'z tizimlarini Yevrosiyo iqtisodiy ittifoqi talablari bilan muvofiqlashtirmoqda. Bu esa transchegaraviy himoyani soddalashtiradi va intellektual mulk huquqlarini Yevrosiyo iqtisodiy ittifoqi hududi bo'ylab bir xil darajada ta'minlashga xizmat qiladi.<sup>46</sup>

Umuman olganda, IMOBR tizimi intellektual mulk huquqlarini himoya qilishda va kontrafakt mahsulotlar savdosiga qarshi kurashishda muhim qadam bo'lib, xalqaro savdodaadolatli va shaffof muhitni yaratishga yordam beradi.

Madrid tizimi – bu tovar belgilarini bir nechta mamlakatda, shu jumladan MDH davlatlarida, Juhon intellektual mulk tashkiloti (JIMT) orqali ro'yxatdan o'tkazish imkonini beruvchi xalqaro mexanizmdir. Bu tizimning raqamlashtirilishi arizalarni topshirish va ularning holatini kuzatish jarayonini sezilarli darajada soddalashtirmoqda. Madrid tizimi brend egalariga birligina ariza orqali ko'plab mamlakatlarda o'z tovar belgilarini himoya qilish imkoniyatini beradi. Bu milliy ro'yxatdan o'tkazish tizimlariga qaraganda ancha samaraliroq va arzonroq yechimdir. JIMT ushbu tizimni boshqaradi va a'zo mamlakatlarning intellektual mulk idoralari o'rtasida markaziy aloqa nuqtasi bo'lib xizmat qiladi.

<sup>45</sup> Метод цифрового водяного знака для защиты QR-кода. Повышение устойчивости к неаффинным преобразованиям – <http://dspace.opru.ua/jspui/handle/123456789/5258>

<sup>46</sup> Таможенный реестр объектов интеллектуальной собственности – <https://www.alta.ru/rois/>

O'zbekiston korxonalari Madrid tizimi orqali xalqaro bozorlarda o'z brendlarini himoya qilishda faol ishtirok etmoqda, ammo arizalarni tayyorlashda yuridik tajriba va xaratatlarga bog'liq muammolar mavjudligi sir emas.

Bugungi kunda Madrid tizimiga kiritilayotgan raqamli innovatsiyalar uning samaradorligini yanada oshirmoqda, xususan, JIMTning elektron platformalari (masalan, Madrid e-Filing) MDH mamlakatlarining milliy tizimlari bilan integratsiyalashmoqda. Bu arizalarni elektron shaklda yuborish, hujjat almashish va arizalarning holatini onlayn kuzatish imkonini beradi. Bu esa qog'ozbozlikni kamaytiradi va jarayonni tezlashtiradi. Sun'iy intellekt arizalarni o'xshashlik bo'yicha tahlil qilishda yordam beradi. U algoritmlari mavjud ro'yxatga olingan tovar belgilari bilan yangi arizalardagi belgilarni solishtirib, potensial ziddiyatlarni tezda aniqlaydi. Bu ekspertiza jarayonini tezlashtiradi va inson xatosini kamaytiradi.

Rossiya, Qozog'iston, O'zbekiston va boshqa MDH mamlakatlari Madrid tizimidan faol foydalanmoqda. Bu ularga o'z kompaniyalarining tovar belgilarini xalqaro miqyosda samarali himoya qilish imkonini bermoqda. Shuningdek, Yevrosiyo iqtisodiy ittifoqi doirasida esa "yagona oyna" konsepsiysi ishlab chiqilmoqda. Bu tizim ichki ittifoq doirasida tovar belgilarni ro'yxatdan o'tkazishni yanada soddalashtirishni maqsad qilgan bo'lib, kelajakda Madrid tizimi bilan ham integratsiyalashishi mumkin.<sup>47</sup>

Intellektual mulk huquqini himoya qilishda, ayniqsa tovar belgilarining "susayishi" (dilution) konsepsiysi MDH mamlakatlarida tobora dolzarb bo'lib bormoqda. Tovar belgilarida "susayishi" (dilution) – bu taniqli yoki o'ziga xos tovar belgisining noyob qiymati, farqlash qobiliyati yoki obro'si ruxsatsiz foydalanish natijasida zaiflashishi yoki yo'qolishi jarayonidir. Bu holat, ayniqsa, mashhur brendlar uchun muhim bo'lib, ularning iste'molchilar ongidagi o'ziga xos boshqa mahsulotlar yoki xizmatlar bilan aralashib, brendning bozor qiymatiga zarar yetkazishga sabab bo'ladi.

Bu ayniqsa hammaga ma'lum bo'lgan belgilar uchun muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. "Susayish" deganda tovar belgisining o'ziga xosligi va farqlash qobiliyatining unga o'xshash belgilardan noqonuniy foydalanish natijasida kamayishi tushuniladi. Masalan, taniqli brend nomining iste'molchilar ongida boshqa mahsulotlar yoki xizmatlar bilan bog'lanishi natijasida uning o'ziga xosligi yo'qolishi mumkin. Bu brendning obro'siga va bozor qiymatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Rossiya sudlari halol raqobatga zid bo'lgan harakatlar bo'yicha ishlarni ko'rib chiqishda "susayish" konsepsiyasiga tayangan holda qarorlar qabul qilmoqda. Misol uchun, "Rosneft" kabi yirik brendlar ishtirokidagi nizolar shunday amaliyotga kiradi. Sudlar tovar belgisining obro'si va iste'molchilar orasidagi o'rnini hisobga olib, uning ruxsatsiz foydalanish natijasida "susayishi"ni baholamoqda.

<sup>47</sup> «Единое окно» в системе регулирования ВЭД – [https://eec.eaeunion.org/comission/department/dep\\_tamoz\\_zak/edinoe\\_okno/](https://eec.eaeunion.org/comission/department/dep_tamoz_zak/edinoe_okno/)

Hozirgi kunda “susayish” bo'yicha ishlarni ko'rib chiqishda bir qator innovatsiyalar qo'llanilmoqda, jumladan, katta ma'lumotlar (Big Data) tahlili obro'ga yetkazilgan zararni va qonunbuzarliklarning brendga ta'sirini baholash uchun ishlatilmoqda. Bu yirik ma'lumotlar massivlarini tahlil qilish orqali brendning bozor pozitsiyasi, iste'molchilarining idroki va qonunbuzarliklarning unga ta'siri haqida aniqroq ma'lumot olish imkonini bermoqda.<sup>48</sup>

Brending dunyosida nafaqat logotiplar yoki nomlar, balki ranglar ham brendning muhim elementi bo'lishi mumkin. Rangli tovar belgilari — bu ma'lum bir rang yoki ranglar kombinatsiyasini tovar belgisi sifatida ro'yxatdan o'tkazish amaliyotidir. Masalan, Rossiyada "Sberbank" uchun yashil rang yoki "UMS" uchun qizil rang shunday rangli tovar belgilariga misol bo'la oladi. Rangni tovar belgisi sifatida ro'yxatdan o'tkazish tobora ommalashib bormoqda, chunki ranglar iste'molchilarining brendni idrok etishida kuchli rol o'ynaydi. Biroq, rangni tovar belgisi sifatida himoya qilish uchun uning farqlash qobiliyatini isbotlash talab etiladi. Ya'ni, iste'molchilar ushbu rangni aynan biror kompaniya yoki mahsulot bilan bog'lashi kerak. Bu rangning oddiy bezak emas, balki tovarning kelib chiqishini ko'rsatuvchi belgi ekanligini anglatadi.

O'zbekistonda "Uzbekistan Airways", "UMS", "Sariq bola" kabi kompaniyalar o'ziga xos rang kombinatsiyalarini brend identifikatsiyasi sifatida ishlatmoqda, ammo rangli tovar belgilari uchun maxsus qonunchilik hali to'liq shakllantirilmagan.

Rossiyada bu borada sezilarli innovatsiyalar kuzatilmoqda, jumladan, rangli tovar belgilarini baholash metodologiyalari ishlab chiqilmoqda. Bu metodologiyalar Pantone tizimi (ranglarni standartlashtirish tizimi) va iste'molchilarining ranglarni qabul qilish tahliliga asoslangan bo'lib, rangning brend uchun o'ziga xoslik darajasini aniqlashga yordam beradi. Bunday tahlillar rangning bozor sharoitlarida qanchalik tanilgani va u iste'molchilar tomonidan qanday assotsiatsiyalar uyg'otishi bo'yicha tadqiqotlarni o'z ichiga oladi.

Afzalliklariga kelsak, birinchidan, brending imkoniyatlarini kengaytirishda rangni tovar belgisi sifatida ro'yxatdan o'tkazish brendlari uchun o'ziga xos vizual identifikatsiyani yaratish va iste'molchilarining xotirasida chuqurroq joylashish hamda noyob vizual elementlarni himoya qilishda brendlarga o'zlarining asosiy vizual elementlaridan birini — rangni himoya qilish orqali raqobatchilar tomonidan taqlid qilishning oldini olish imkonini beradi.

Rangli tovar belgilari — bu brendning vizual identifikatsiyasini yanada kuchaytirishga va uni huquqiy jihatdan himoya qilishga qaratilgan innovatsion yechimdir. Kelajakda MDH mamlakatlari bu boradagi amaliyotni rivojlantirishi kutilmoqda.

Bugungi kunda elektron tijoratning (e-commerce) MDH mamlakatlarida jadal rivojlanishi bilan birga, raqamli muhitda tovar belgilarini himoya qilish usullari ham

<sup>48</sup> Глобальная база данных по брендам – <https://www.wipo.int/ru/web/global-brand-database>

faol takomillashib bormoqda. Bu onlayn-do'konlar (markypleyslar), ijtimoiy tarmoqlar va domen nomlarini monitoring qilish kabi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi.

Internetda kontrafakt mahsulotlar savdosi brendlarning obro'si va daromadlariga jiddiy zarar yetkazishi mumkin. Shuning uchun, bu borada bir nechta usullar qo'llanilmoqda, jumladan, markypleyslarni monitoring qilish usuli orqali Wildberries, Ozon yoki Kaspi.kz kabi yirik onlayn savdo platformalarida qalbakilashtirilgan mahsulotlarning paydo bo'lishi kuzatilishi mumkin, shuningdek, ijtimoiy tarmoqlarni kuzatish orqali Instagram, Facebook, Telegram kabi ijtimoiy tarmoqlarda brendlarning ruxsatsiz ishlatalishi yoki kontrafakt mahsulotlarning reklama qilinishini aniqlash mumkin. Bundan tashqari, domen nomlari monitoring brend nomiga o'xhash yoki uni o'z ichiga olgan domen nomlarining ro'yxatga olinishini kuzatish imkonini berib, bu iste'molchilarni chalg'itishi mumkin bo'lgan soxta veb-saytlarning oldini olishga sharoit yaratadi.<sup>49</sup>

Kontrafaktga qarshi kurashda texnologik innovatsiyalar muhim rol o'yamoqda. Veb-kравлерлар ва sun'iy intellektdan foydalanish onlayn platformalardagi katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilib, soxta tovarlarni avtomatik ravishda aniqlashga yordam beradi. Veb-kравлерлар ma'lumotlarni yig'adi, sun'iy intellekt esa ularni tahlil qilib, qonunbuzarliklarni aniqlaydi. Avtomatik bloklash tizimlari Rossiya va Qozog'istonda qonunbuzarliklarni avtomatik ravishda bloklash tizimlarida joriy etilmoqda. Bu tizimlar aniqlangan qonunbuzarliklarga tezda javob berish va kontrafakt mahsulotlarning sotilishini to'xtatish imkonini beradi.

Yevrosiyo iqtisodiy ittifoqi yagona patent tizimi ittifoqqa a'zo mamlakatlar (Rossiya, Qozog'iston, Belarus, Armaniston, Qirg'iziston) uchun ishlab chiqilayotgan muhim tashabbus bo'lib, bu ittifoq hududida tovar belgilarni ro'yxatdan o'tkazishni sezilarli darajada soddalashtirishni maqsad qilgan. Bu tizim birgina ariza orqali bir nechta mamlakatda himoya olish imkoniyatini beradi.

Hozirda har bir mamlakatda tovar belgisini alohida-alohida ro'yxatdan o'tkazish talab qilinadi. Bu esa xarajatlar va vaqtini oshiradi. Ittifoq yagona patent tizimi aynan shu muammoni hal qilishga qaratilgan. Uning asosiy mohiyati shundaki, kompaniyalar yoki tadbirkorlar bir martalik ariza topshirish orqali barcha a'zo mamlakatlarda o'z tovar belgilarini himoya qilish imkoniyatiga ega bo'lishadi. Bu xuddi xalqaro Madrid tizimiga o'xhash, ammo faqat ittifoq hududi doirasida ishlaydigan mexanizmdir.<sup>50</sup>

## XULOSA

Intellektual mulk huquqida doirasida MDH mamlakatlarining tovar belgilari yuzasidan qounchilik doirasini hamda amaliyotda qo'llab kelayotgan va endilikda amaliyotga joriy etish arafasida bo'lgan innovatsion texnologiyalarini tahlil qilgan holda quyidagi takliflarni O'zbekistonda amalda joriy etish tavsiya qilinadi:

<sup>49</sup> Эффективные стратегии и технологии защиты товаров – <https://pro-ctrl.ru/защита-от-подделки-товаров/эффективные-технологии-защиты-товаров/>

<sup>50</sup> В ЕАЭС создается единая система регистрации товарных знаков и наименований мест происхождения товара - AK&M – <https://rospatent.gov.ru/news/edinaya-sist-reg-tovarnyh-znakov-i-nmpt24082020>

**I. Ilmiy-nazariy taklif va xulosalar:**

1. Tovar belgilarining “susayishi” konsepsiyasini o‘rganish va qonunchilikka kiritish: MDH mamlakatlarida, xususan O‘zbekistonda, tovar belgilari “susayishi” (dilution) bo‘yicha nazariy tadqiqotlarni kengaytirish va bu tushunchani milliy qonunchilikka kiritish bo‘yicha ilmiy ishlar olib borish zarur. Bu taniqli brendlarning obro‘sini himoya qilishda yuridik asoslarni mustahkamlashga yordam beradi.

2. Blokcheyn va sun’iy intellekt integratsiyasining huquqiy asoslarini ishlab chiqish: Intellektual mulkni himoya qilishda blokcheyn va sun’iy intellekt kabi texnologiyalarni qo‘llashning huquqiy asoslarini ishlab chiqish bo‘yicha ilmiy-nazariy tadqiqotlarni rivojlantirish zarur. Bu texnologik innovatsiyalarning qonuniy jihatdan tartibga solinishi va xalqaro standartlarga moslashishini ta’minlashga asos bo‘ladi.

**II. Amaliy taklif va xulosalar:**

1. Elektron tijorat platformalarida monitoring tizimlarini joriy qilish: O‘zbekistonning mahalliy elektron tijorat platformalarida (masalan, Uzum Market) sun’iy intellektga asoslangan monitoring tizimlarini joriy etish orqali kontrafakt mahsulotlar savdosini kamaytirish kerak. Bu platformalar xalqaro tajribaga asoslangan avtomatlashtirilgan tizimlarni qo‘llash orqali brendlarning huquqlarini samarali himoya qilishi kerak hisoblanadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

- 1.1 Klein, T. (2001). Madrid trademark agreement vs. Madrid protocol. *J. Contemp. Legal Issues*, 12, 484.
- 1.2 Offner, E. D. (1966). The Madrid Agreement and Trends in International Trademark Protection. *Trademark Rep.*, 56, 368.
- 1.3 Lu, B. (2007). Madrid System for the International Registration of Marks: An Updated Overview. *Intellectual Property Studies*, 17, 226-246.
- 1.4 Abu-Rumman, A. (2022). The legal system for registering a trademark in accordance with the Madrid Agreement Concerning the International Registration of Trademarks and Related Legislation-A Comparative Study. *Al-Balqa Journal for Research and Studies*, 25(1), 148-160.
- 1.5 Klein, T. (2001). Madrid trademark agreement vs. Madrid protocol. *J. Contemp. Legal Issues*, 12, 484.
- 1.6 Xalqaro intellektual mulk huquqi. Yakubova I. 2023
- 1.7 Xorijiy mamlakatlar intelektual mulk huquqi. Rustambekov I., Nuridullayev A. 2011.
- 1.8 Михалькевич, Э. В., & Игнатик, М. И. (2016). Правовое регулирование регистрации товарных знаков в соответствии с Мадридской системой. In Развитие современной цивилизации: ответы на вызовы времени (pp. 452-457).

1.9 Мирбабаева, Р. В. (2019). РЕГИСТРАЦИЯ ТОВАРНЫХ ЗНАКОВ, КАК СПОСОБ ВОЗНИКНОВЕНИЯ ИСКЛЮЧИТЕЛЬНОГО ПРАВА НА ТОВАРНЫЙ ЗНАК. Вестник Таджикского национального университета. Серия социально-экономических и общественных наук, (9), 231-236.

1.10 Михалькевич, Э. В., and М. И. Игнатик. "Правовое регулирование регистрации товарных знаков в соответствии с Мадридской системой." Развитие современной цивилизации: ответы на вызовы времени. 2016.

## II. Internet manbaalari

2.1 Роспатент и Корпорация МСП запустили новый сервис для регистрации товарных знаков – <https://rospatent.gov.ru/ru/news/28-02-2025-rospatent-i-korporaciya-msp-zapustili-novyy-servis-dlya-registracii-tovarnykh-znakov>

2.2 Товарный знак создан системой искусственного интеллекта – <https://etalonline.by/novosti/mnenie/tovarnyy-znak-sozdan-sistemoy-iskusstvennogo-intellekta/>

2.3 Система маркировки товара Честный ЗНАК: что это и как в ней работать – [https://xn--80ajghhoc2aj1c8b.xn--p1ai/info/smi\\_o\\_nas/sistema-markirovki-tovara-chestnyy-znak-chto-eto-i-kak-v-ney-rabotat/](https://xn--80ajghhoc2aj1c8b.xn--p1ai/info/smi_o_nas/sistema-markirovki-tovara-chestnyy-znak-chto-eto-i-kak-v-ney-rabotat/)

2.4 Метод цифрового водяного знака для защиты QR-кода. Повышение устойчивости к неаффинным преобразованиям – <http://dspace.opu.ua/jspui/handle/123456789/5258>

2.5 Таможенный реестр объектов интеллектуальной собственности – <https://www.alta.ru/rois/>

2.6 «Единое окно» в системе регулирования ВЭД – [https://eec.eaeunion.org/comission/department/dep\\_tamoj\\_zak/edinoe\\_okno/](https://eec.eaeunion.org/comission/department/dep_tamoj_zak/edinoe_okno/)

2.7 Глобальная база данных по брендам – <https://www.wipo.int/tu/web/global-brand-database>

2.8 Эффективные стратегии и технологии защиты товаров – <https://proctrl.ru/защита-от-подделки-товаров/эффективные-технологии-защиты-товаров/>

2.9 В ЕАЭС создается единая система регистрации товарных знаков и наименований мест происхождения товара - AK&M – <https://rospatent.gov.ru/ru/news/edinaya-sist-reg-tovarnykh-znakov-i-nmpt24082020>